

NUTQ VA INTELEKT RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.

Rahmadjonova Mohinabonu Zofarjon qizi*Namangan davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq va intellekt rivojlanishining psixologik asoslari, nutqning turlari, nutq psixofiziologik jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, intellekt tushunchasining psixologik mohiyati intellekt bo'yicha asosiy yondashuvlar nutqdagi kamchiliklarning intellektga ta'siri bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq, tasavvur, intellekt, ta'lim jarayoni, konkret operatsiyalar, nutqiy kamchiliklar, formal operatsiyalar, afaziya, dizartriya

Абстрактный: В данной статье рассматриваются психологические основы речи и интеллектуального развития, типы речи, психофизиологические процессы речи. Также описывается психологическая сущность понятия интеллекта, основные подходы к интеллекту и влияни дефектов речи на интеллект.

Abstract: This article covers the psychological foundations of speech and intellectual development, types of speech, psychophysiological processes of speech it also describes the psychological essence, of the concept of intellect, the main approaches to intellect, and the impact of speech defects on intellect.

Nutq insonning asosiy aloqa vositasidir.

Nutqsiz insonlar malumotlarni qabul qila olmaydi va o'zlari bilgan ma'lumotlarni boshqalar bilan ham baham ko'ra olmaydi.

Nutq rivojlanishi miya po'stlog'ining nutq zonalari roka va vernika markazlari , eshitish ko'rish analizatorlarining uyg'un faoliyatini talab qiladi.

Bu jarayonlar yetarlicha shakllanmasa nutq rivojlanishida kechikishlar kuzatiladi. Nutq psixofiziologiyasidagi buzilishlar quyidagi nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Afaziylar – miya markazlari zararlanganda,

Dizartriya – artikulyatsiya mushaklarining falaji

Bradiliya – nutqning juda sekin yoki juda tez bo'lishi hamda tovush talaffuzi nuqsonlari.

Shuningdek, nutq qo'llanish sohasiga ko'ra va faoliyat turiga ko'ra bir nechta turlarga bo'linadi, nutqning ikki asosiy turlari mavjud.

1. Monologik nutq

2. Dialogik nutq

Monologik nutq; bir kishi boshqalarga qaratib gapirishi. Bu masalan, iqtiboslar, ma'ruza, hikoyalar bo'lishi mumkin.

Dialogik nutq; ikki yoki undan ortiq kishining o'zaro suhbatlashishi. Masalan, do'stlar davrasida suhbat qurish.

Nutqning qo'llanish sohasiga ko'ra turlarii

1. Badiiy nutq.
2. Ilmiy nutq
3. Rasmiy nutq kabi shakllarga egadir.

Nutqlar faoliyat turiga ko'ra ;

1. Faol nutq ; faol ravishda yaratilgan, ya'ni gapiruvchining nutqi.

2. Passiv nutq; nutqni qabul qiladigan, ya'ni tinglovchining nutqi. Har bir kishining nutqi individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta'sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo'ladi.

Intelekt tushunchasining psixologik mohiyati

Intelekt inson psixikasining eng murakkab tarkibiy qismlaridan biri bo'lib,

bilimlarni egallash, atrof – muhitni anglash, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish ulardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Intelekt bu – xotira, diqqat, tasvvur kabi kongitiv jarayonlari asosida murakkab axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatidir. Psixologik yondashuvlarda intellekt haqida bir qator

nazariyalar ilgari surilgan. Shvetsariyalik olim intellektual rivojlanish nazariyasini ilgari surgan. Piagetning fikriga ko'ra intellekt bu bola faoliyatining natijasi bo'lib, bosqichma – bosqich rivojlanadi. U intellektual rivojlanishni preoperational, sensomotor, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichlariga bo'linadi. Bu bosqichlar universal bo'lib, bolaning muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganib, ularni amalga oshiradi. Piagetning fikricha, bola – atrof muhitni qabul qilmaydi. Balki biz aqliy faoliyati orqali uni qayta ishlaydimiz.

Nutqdagi kamchiliklar sababli bolalarda turli xil kamchiliklar kelib chiqadi. Fikrni ifodalash imkoniyatlari o'zlashtirishga qiynalishadi. Tafakkur qilish jarayonlari sustlashadi. Bundan tashqari, tahlil va umumlashtirish ko'nikmalari pasayadi, narsalarni taqqoslashga, farqlashga, sabab – oqibatini tushunishga va umumiy xulosa chiqarishga qiynalishadi. Agar bola so'z boyligiga ega bo'lmasa, murakkab fikrlarni tahlil qilishda qiynaladi. Nutqda kamchiliklarning oldini olinmasa, intellektning o'sish sur'atini sekinlashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nutq bu aloqa vositasi bo'lib, insonlar o'zlarining emotsional holatlarini hamda bilim va ko'nikmalarini o'zgalarga bayon qilishlari mumkin. Intelekt orqali atrof – muhitni anglash, ma'lumotlarni qabul qilish hamda uni sintez qilishadi. Nutq va ntelekt rivoji bir- biridan ajralmas psixologik jarayondir. Nutq fikrlashning asosiy vositasidir. Intelekt esa nutq orqali kengayib, boyi boradi.

Bola faoliyatining barcha turlarining rivojlanishi ma'lum ehtiyojlar, motivlar va qiziqishlarning paydo bo'lishiga asoslanadi. Masalan, bola narsalar bilan o'zaro ta'sir qila boshlashi uchun ulardan foydalanish zaruratini rivojlantirishi va ular bilan o'zaro ta'sir qilish texnikasini o'zlashtirishi kerak. Biroq, faoliyatning paydo bo'lishi uchun faqat ehtiyojning o'zi yetarli emas.

Bola faoliyatning maqsadini tushunarli shaklda tushunishni va uni amalga oshirish shartlarini tushunarli chegaralar ichida tahlil qilishni o'rganishi kerak.

Shu bilan birga, bola allaqachon idrok, vizual-faol fikrlash, yalpi va mayda motorika ko'nikmalarida yetarli darajada rivojlanishga ega bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov, Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. – “Barkamol fayz media”, 2018.- 272b.
2. Voxobava, M., & Gulmira, G. (2025). Nutqida muammolari bo'lgan bolalarga bo'lgan munosabat va ularning ijtimoiy adaptatsiyasi. Science and Education, 6(2), 216-219.
3. Turg'unpo'latova, D., & Voxobova, M. (2025). Inklyuziv ta'limda logopedik yordamning o'rni. Science and Education, 6(5), 350-355.
4. Munira, V. (2025, March). ALALIA IMPROVISATIONAL METHODS OF PREPARATION FOR WORK ON SPEECH IMPAIRMENT. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 93-97).
5. Jaxongirova, M. N. Q., & Voxobova, M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqi ko'nikmalarini rivojlantirish. Science and Education, 6(5), 283-287.
6. Sadirdinovna, V. M. (2023). Corrective pedagogical work carried out in stuttering children. JournalNX, 9(12), 372-375.
7. SADIRDINOVNA, V. M. (2023). Ways and methods of speech formation of children with alalia speech defects. Confrencea, 3(03), 231-235.
8. Munira, V., & Marhabo, Q. (2024). Ovoz kamchiliklarining uchrashi va ularni bartaraf etishning pedagogik asoslari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15, 29-32.
9. Sadirdinovna, V. M. (2023). Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia. Open Access Repository, 4, 316-320.
10. Sadirdinovna, V. M. (2023). Features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(12), 1001-1004.
11. Munira, V., & Sodiqjonovna, M. X. (2024). Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 33-35.
12. Vaxobova, M. (2024). O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar. Журнал Педагогикки и психологии в современном образовании, 4, 53-57.
13. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 51-69.